



O'ZBEKISTONDA MOLIYA BOZORINI RIVOJLANTIRISH YO'LLARI

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek qizi
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya. ushbu maqolada moliya bozorining ilmiy- nazariy jihatlari tadqiq qilingan, hamda, fond bozori instrumentlari dinamikasi tadqiq qilingan. Shuningdek, Respublika fond birjasi indeksining bir qancha omillar tufayli o'zgarishi tahlil qilingan. O'zbekiston fond bozorida aksiyadorlik jamiyati aksiyalarining bozor qiymatiga salbiy ta'sir qiluvchi muammolar aniqlangan va ularni bartaraf etish yuzasidan tegishli taklif va xulosalar keltirilgan.

Kalit so'zlar: fond bozori, qimmatli qog'ozlar, kapital, aksiyalar, obligatsiya, moliyaviy instrumentlar.

ПУТИ РАЗВИТИЯ ФИНАНСОВОГО РЫНКА УЗБЕКИСТАНА

Шамситдинова Хонзода Мардонбек кизи
Ташкентский государственный экономический университет

Аннотация. В статье исследованы научно-теоретические аспекты финансового рынка и анализирована динамика фондовых инструментов. Кроме того, определены ряд текущих проблем на фондовом рынке и представлены соответствующие предложения и заключения.

Ключевые слова: фондовый рынок, ценные бумаги, капитал, акции, облигация, финансовые инструменты.

WAYS OF FINANCIAL MARKET DEVELOPMENT IN UZBEKISTAN

Shamsitdinova Xonzoda Mardonbek kizi
Tashkent State University of Economics

Abstract. In the article have been examined the scientific and theoretical aspects of financial market and was analyzed the dynamics of stock market's instruments. In addition, wide variety of current problems in the stock market were identified, also, in order to eliminate these problems were drawn up proposals and corresponding conclusions.

Key words: stock exchange, securities, capital, shares, bonds, financial instruments.

Kirish.

Globalashuv jarayoni yuz berayotgan bir davrda, jahon miqyosida moliya bozorida yuz berayotgan turli xil o'zgarishlar va islohotlar hamda o'z navbatida bir qancha muammolar ham mavjud.

Ma'lumki, moliya bozorining asosiy segmenti bo'lgan fond bozori mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirish muhim omillardan biri sanaladi, hamda, aynan fond bozori orqali iqtisodiyotda milliy valyuta aylanmasining samarali boshqarilishiga erishiladi. Ya'ni, fond bozori pul mablag'lari yetarli bo'lgan va pulga ehtiyoji bo'lgan tarmoqlarni bir biri bilan o'zaro bog'laydigan, jamg'arilgan pul mablag'larini qarzga oluvchilarga o'tishini ta'minlaydigan munosabatlar yig'indisidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotiga nazar soladigan bo'lsk, aynan moliya bozorining qimmatli qog'ozlar bilan tartibga soluvchi bozor modelidan foydalangan holda butun iqtisodiyotni rivojiga ulkan hissa qo'shmoqdalar. Shuning uchun ham, moliya bozori milliy iqtisodiyotni riojlantirishda eng muhim institutlardan biri hisoblanadi.

Bugungi kunda ham jahon iqtisodiyotining rivojlanish davrida fond bozoridagi jarayonlar yanada takomillashib, iqtisodiy taraqqiyotni hal qiluvchi omiliga aylanib ulgurdi. Iqtisodiy tanglik davrida ham bo'sh turgan pul mablag'larini moliyaviy instrumentlar, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar orqali jalb qilib iqtisodiyotni barqarorlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 13.04.2021 yildagi PF-6207-sonli "Kapital bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni qabul qilindi. Ushbu Dasturning asosiy maqsadi²⁹ erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar umumiy hajmining mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi nisbatini 5 foizga yetkazishga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishni chuqurlashtirishni nazarda tutuvchi davlat siyosatini tubdan takomillashtirishdan iborat bo'lib, quyidagi ustuvor strategik vazifalarni o'ziga qamrab oladi: investorlar uchun jozibador mexanizmlarni joriy qilish hisobiga kapital bozorining raqobatbardoshligini oshirish va uning kapitallashuvini 2023-yil yakuniga qadar 45 trln. so'mga yetkazish, bank tomonidan kreditlashning samarali muqobil mexanizmini yaratish; xalqaro moliya bozorlari bilan faol integratsiyalashuv, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan keng foydalanish va xorijda muvaffaqiyatli sinovdan o'tgan ilg'or yondashuvlardan foydalanish orqali barcha toifadagi investorlar uchun kapital bozorining qulayligini oshirishni ta'minlashdan iborat.

Hozirgi kunda mamlakatimizda ham moliya bozorini rivojlantirishga to'siq bo'layotgan bir qator hal qilinishi kerak bo'lgan masalalar mavjud, shu jumladan, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishda me'yoriy-huquqiy asoslarning takomillashmaganligi, aksiyadorlik jamiyatlariga qo'yilayotgan talablarning yuqoriligi, investitsion jozibadorlikni yetishmasligi, mamlakatdagi tub aholining moliya bozori, asosan, qimmatli qog'oz va davlat zayomlariga ishonchi juda pastligi hamda moliyaviy savodxonlik yetishmasligi kabi muammolarni misol qilib keltirishimiz mumkin.

Ushbu muammolarni bartaraf etish va moliya bozori tizimini yanada takomillashtirish uchun kerakli barcha shart-sharoitlarni yaratish bugungi kunda bizning oldimizda turgan dolzarb vazifalardan biri xisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili.

Iqtisodiyotga aloqador adabiyotlarda moliya bozori va uni kelib chiqishi, uning segmentlari, ayniqsa, fond bozori va uni rivojlanishiga to'siq bo'layotgan bir qancha omillar hamda ularni bartaraf etish yuzasidan olib borilgan izlanishlar natijasidagi tadqiqot va tahlillar mavjud.

G'arb iqtisodiy adabiyotlarida moliya bozorlari pul mablag'lari oqimini jamg'aruvchidan qarz oluvchiga yo'naltiruvchi bozor insti-tutlari jamlanmasi sifatida keltiriladi (Edwin va boshq. 1988).

Frederik Mishkin (2012) ortiqcha mablag'larga ega odamlardagi pul mablag'larini pul mablag'lari yetishmayotganlariga o'tkazib berishga xizmat qiluvchi bozorlarni moliya bozorlari deb ataydi.

1997-yil iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofoti laureati Robert Merton moliya bozorining quyidagi funksiyalarini ajratib ko'rsatadi (Elmirzayev va boshqalar 2019):

- kapitalni vaqt, tarmoqlararo va mamlakatlararo qayta taqsimlash;
- kapital jamlash va korxonalariga ulush kiritish;
- to'lov-hisob-kitob;
- risklarni boshqarish;
- axborot;
- axborotlar assimetriyasi bilan bog'liq muammolarning oldini olish.

Ba'zi iqtisodchi olimlar xalqaro va miliy moliya bozorini rivojlanishini 4 bosqichga bo'lib o'rganishgan (Bурханов, Худойкулов 2021): 1-bosqich 1860-yillar, tashqi savdoni rivojlantirish. 2-bosqich, 1950-1960 yillar, milliy kredit bozorini integratsiyalashuvi. 3-bosqich, 1970-1980-yillar, uzoq muddatli kapital uchun xalqaro bozorni shakllantirish va xalqaro investitsiya bozorini yaratish, 4-bosqich 1990-2000-yillar, ya'ni, xalqaro va milliy moliya bozorida derivative bozorlarini tez sur'atlarda rivojlanishi.

Xorij olimlaridan Chernova (2015) ta'rifiga ko'ra, moliya bozori doimiy xarakterda bo'lgan barcha pul resurslarining umumiy miqdori bo'lib, ya'ni, iqtisodiyotning turli subyektlari tomonidan ushbu resurslarga bo'lgan talab va taklifning o'zgarishi orqali joylashtirish va qayta taqsimlash hisoblanadi.

Yangi Zelandiyalik Chaiporn Vithessonhi (2014)ning fikriga ko'ra moliyaviy bozorlarning rivojlanishi iqtisodiyot uchun imkoniyatlar va tahdidlarning asosiy manbai hisoblanadi, chunki u iqtisodiyotdagi firmalarga kapitalni samarali taqsimlashni ta'minlash orqali iqtisodiy o'sishni rag'batlantirishi mumkin, ammo ikkinchi tomondan bu iqtisodiyot uchun xavf tug'dirishi mumkin.

²⁹ <https://lex.uz/docs/-5371091>

Bir nechta iqtisodchi olimlar – Irvan Trinugroxo, Siong Huk, Veng Chang Li, Jamol Wiwoho, Bruno Sergilar (2021)ning yondashuvlariga ko‘ra moliya bozorining segmenti bo‘lgan kredit va qimmatli qog‘ozlar bozorining rivojlanish darajasi faqatgina ma‘lum bir chegaragacha mamlakat innovatsiyasi uchun foydalidir, aks holda bir qancha to‘sqinliklar keltirib chiqarishi mumkin.

Mahalliy iqtisodchi olimlardan Shoxa‘zamiy (2012)ning fikricha, moliya bozori – bu monetizatsiyalashgan real investitsion bazisga ekvivalent moliyaviy instrumentlar bilan bog‘liq tashkillashgan, iqtisodiy-xuquqiy mexanizm bilan ta‘minlangan munosabatlarni maqsadli amalga oshiruvchi, iqtisodiy subyektlar zaruriy bozor sharoitlarini yaratib beruvchi majmua sifatida namoyon bo‘luvchi tizim.

Yuqoridagi Tahlillardan shuni ta‘kidlash mumkinki, moliya bozori bu moliyaviy institutlar yordamida pul mablag‘lariga ehtiyoji bor va ortiqcha pul mablag‘lariga ega tarmoqlarni bir-birlari bilan uchrashtiradi. Moliya bozorini yaxshiroq tushunish uchun uning turlari va funksiyalarini bilish esa pul mablag‘larini to‘g‘ri boshqarishda yanada qo‘l keladi. Shuningdek, moliya bozori iqtisodiyotning rivojlanishida aosiy dastak bo‘lib xizmat qiladi hamda uning infratuzilmasini yanda takomillashtirish orqali mamlakatda iqtisodiy barqarorlikka erishish hamda investitsion jozibadorlikni oshirishga erishish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi.

Mazkur maqolada xorijiy va mahalliy olimlarning moliya bozori va uni kelib chiqishi, hozirgi kundagi moliya bozori va aynan fond bozori rivojlanishiga to‘siq bo‘layotgan bir qancha omillar va ularni oldini olish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi ilmiy-nazariy qarashlar tahlil qilindi. Tadqiqot davomida baholash, monitoring, analiz ,sintez kabi bir qancha usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar.

Iqtisodiyotni moliya bozori, ya‘ni, qimmatli qog‘ozlar yordamida moliyalashtirish usuli bir qancha rivojlangan mamlakatlar: AQSH, Buyuk Britaniya kabi davlatlarning moliya tizimidan joy olgan. Shunday bo‘lishiga qaramasdan mamlakatimizda RFB (Respublika fond birjasi) ning bozor kapitalalshuvi YaIMning o‘rtacha 6% iga to‘g‘ri keladi, ammo dunyoda bu ko‘rsatkich o‘rtacha 82 % ni tashkil etadi. Mazkur ko‘rsatkich bo‘yicha dunyodagi bazi mamlakatlarda: masalan, Singapurda 188 foiz, Malayziyada 112 foiz, Rossiyada 34 foizni tashkil etadi³⁰. Respublikamizning fond bozorida professional ishtirokchilari soni 100 tani ham tashkil qilmaydi. Lekin, moliya bozorining jadal rivojlanishi aksiyadorlik jamiyatlarining rivojlanishi bilan uzviy bog‘liqdir.

1-jadval

2018-2023-yillarda holatiga ko‘ra “Respublika fond birjasidagi” aksiya baholari indeksi³¹

Yillar	Qiymati (so‘m)	Aksiya baholari o‘zgarish %	Qimmatli qog‘ozlar soni	Savdolar hajmi mlrd.so‘m
2017	1001,52	-	5795399	318169095
2018	1015,66	1,4%	10292361	1668665403
2019	610,58	-39%	16959358	979055488
2020	624,14	2,2 %	2510997	613807237
2021	837,06	34%	18221418	1208685452
2022	721,67	-14%	75278078	75278078
2023	426,49	-41%	31710782	625447734

Tadqiqotimizda O‘zbekistondagi Respublika fond birjasining so‘nggi o‘rtacha 7 yillik aksiya baholari, qiymatining o‘zgarishi, aksiyalarning soni hamda qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha amalga oshirilgan savdolar hajmi dinamikasi tahlil qilingan.

Ma‘lumotlardan ko‘rishimiz mumkinki, aksiyalarning o‘rtacha qiymati yildan-yilga tushib bormoqda, ya‘ni 2017-yil 1001,52 so‘mni tashkil qilib, jami 318169095 mlrd.so‘mlik shartnoma tuzilgan, keying yilda asta sekinlik bilan aksiyalarni bozor bahosi 1,4% ga o‘sd. Ammo, 2019-yilga kelib COVID-19 pandemiyasi moliya bozoriga ham sezilarli darajada ta‘sir qildi. Natijadaa, moliya bozorining regulyatori bo‘lgan aksiyadorlik jamiyatlaridagi ishlab chiqarilgan mahsulot va tovarlar o‘z vaqtida

³⁰ <https://www.norma.uz/oz/bizning-sharhlar/fond-bozori-muammolar-qanday-va-ular-qanday-hal-qilinadi>

³¹ stat.uz sayti yordamida muallif tomonidan tuzildi.

sotilmadi hamda foyda o'z navbatida kamaya boshladi, hatto, ba'zi aksiyadorlik jamiyatlaridagi daromadlar xarajatlarni ham qoplamay qo'ydi. Buni aksiya baholari tushib ketgani bilan ham izohlash mumkin, ya'ni, o'rtacha 610,58 so'mdan bo'lgan 16959358 dona aksiyalar muomalaga chiqarildi. 2020-yilga kelib ahvol yanada og'irlashdi va emissiya qilingan aksiyalarning o'rtacha soni 2510997 ni tashkil etdi.

2021-yilga kelib fond birjasi asta-sekinlik o'zini tiklashni boshladi va aksiyalarning bozor bahosi 800 so'mdan oshdi, bu esa o'rtacha narx 34% ga ko'tarilganidan dalolat beradi. 2022-yil holatiga ko'ra, "Toshkent" Respublika fond birjasi indeksi 721,67 so'mni tashkil qilgan holda, 75278078 dona aksiya emissiya qilinib, 4156394411 mlrd.so'mlik savdo amalga oshirilgan bo'lsa, 2023-yilning boshidagi Tahlillarga ko'ra - 41% ga kamayib, 426,49 so'mni tashkil qilgan holda, shu kungacha umumiy 31710782 dona aksiya muomalaga chiqarildi.

1-jadval umumiy ma'lumotlariga ko'ra, RFB indeksining eng yuqori holati narxlar kesimida 2018-yilga to'g'ri kelgan, ammo, amalga oshirilgan shartnoma qiymati va aksiyalar soni bo'yicha 2022-yilga to'g'ri kelgan va mos ravishda 75278078 ta aksiya emissiya qilinib, investor va emitentlar o'rtasida 75278078 mlrd.so'mlik shartnoma tuzildi. Eng quyi narx esa bu yilga to'g'ri kelsada, eng kam aksiyalar pandemiya davrida ya'ni 2020-yilda emissiya qilinganini ko'rishimiz mumkin.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki aksiyalarning baho va savdo indeksleri pandemiyadan oldin yuqori bo'lib, faol bo'lgan aksiyadorlik jamiyatlari aksiyalari bozor qiymati keskin tushishi fond bozori indeksining pasayishiga olib kelgan va asta-sekinlik bilan tushib borgan, ammo, oxirgi yillarda muomalaga chiqarilayotgan aksiyalar soni ortyabdi va amalga oshirilayotgan shartnoma hajmi ham ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

2-jadval

2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasidagi salmoqli aksiyadorlik jamiyatlarining aksiya baholarining dinamikasi³²

Aksiyadorlik jamiyatlari nomi	2018 (So'm)	2019 (So'm)	2020 (So'm)	2021 (So'm)	2022 (So'm)	2023 yil boshi uchun
Respublika tovar xomashyo birjasi	6 016,70	9 637,87	11650,59	16945,98	22 377,57	22 300,33
O'zmetkombinat	14 187,27	29 109,24	27 403,25	69 329,66	35 043,63	9 025,17
Kvartz	5 285,91	5 408,68	3 011,94	3 991,01	3 529,89	3 297,44
Qo'qon mexanika zavodi	1 157,50	1 193,59	973,58	947,23	905,48	873,14
Qizilqum sement	1 415,23	1 664,22	2 079,89	5 926,99	3 966,38	3 415,25

2- jadvaldagi ma'lumotlar tahlilida bir nechta aksiyadorlik jamiyatlari shu jumladan, "Respublika tovar xomashyo birjasi", "Qizilqum sement", "Kvarts", "Qo'qon mexanika zavodi" va "O'zmetkombinat" kabi aksiyadorlik jamiyatlarining 2018-2022-yillardagi hamda 2023- yil boshidagi aksiya baholarining o'rtacha dinamikasi keltirilgan .

2023- yilning dastlabki xaftasida O'zbekiston fond bozorida UCI indeksi 46,9 % gacha oshib bordi. Buni aksiyadorlik jamiyatlari kesimida ko'rar ekanmiz, "O'zmetkombinat" aksiyadorlik jamiyatidagi aksiyalari narxi 2018 yil holatiga ko'ra eng yuqori ko'rsatkich bilan 14187,27 so'mni tashkil qilgan bo'lsa, "Qo'qon mexanika zavodi" ning aksiyalari narxi eng past ko'rsatkich bilan 1157,5 so'mga teng bo'lgan.

Keyingi yilda ham "O'zmetkombinat" aksiyalari bahosi 29 109,24 so'm bilan yashil zonadan joy oldi va "Respublika tovar xomashyo birjasi", "Kvarts", "Qizilqum sement" hamda "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyalari bahosi ham o'sishda davom etdi va mos ravishda narxlar 29 109,24, 5408,68, 1664,22 va 1 193,59 so'mgacha ko'tarildi. Bu esa o'z navbatida aksiyadorlik jamiyatlarining barqaror rivojlanganidan dalolat beradi.

2020-yilda esa "Kvarts" va "Qo'qon mexanika zavodi" pandemiya tufayli o'tgan yilga nisbatan deyatli 10% kam mahsulot ishlab chiqardi, ammo davr xarajatlari oshib ketganligi tufayli asosiy faoliyatidan tushadigan daromadlari o'rtacha 20 %gacha kamaygan . Natijada esa korxonalarin sof

³² stat.uz va RFB yordamida muallif tomonidan tuzildi.

foydasi o'tgan yilgi daromadning 60%iga teng bo'ldi. Aksiyalari bahosi ham mos ravishda 45% va 19% foizgacha o'z qiymatini yo'qotdi, ammo qolgan 3 ta AJ lar o'sishda davom etdi.

2021-yilga kelib "O'zmetkombinat" ishlab chiqargan mahsulotlarining tannarxi oshishi natijasida davr xarajatlari oshishiga qaramay, asosiy faoliyatning daromadi deyarli 5 barobarga ortgan va sof foyda o'tgan yili 220 mln. so'mni tashkil qilgan bo'lsa bu yilga kelib, 1.4 mlrd. so'mni tashkil etdi. Shuning uchun ham, qimmatli qog'ozlari bahosi sezilarli darajada oshib ketdi va eng yuqori ko'rsatkichni tashkil etib o'rtacha 69 329,66 so'mni tashkil qildi, ammo "Qo'qon mexanika zavodi" ning sof foydasi o'rtacha 500 mln. so'mni tashkil etdi va bu o'tgan yildagi AJ moliyaviy hisobotlariga ko'ra deyarli 75 %gacha kamaygan. O'z navbatida aksiyalari bahosi yana tushishda davom etib, 947,23 so'mni tashkil qilgan.

2022-yilda esa "O'zmetkombinat"ning mahsulotdan tushgan foydasi kamayib ketganligi tufayli sof foyda atigi 770000 so'mni tashkil qildi. Bu esa o'tgan yilgiga nisbatan foyda 2 barobar kam bo'lganidan dalolat beradi va aksiyalari dinamikasi 50% gacha atushgan bo'lsada, boshqa aksiyadorlik jamiyatlari orasida o'zining salmoqli o'rnini yo'qotmadi va yashil zonada saqlanib qoldi. "Respublika Tovar –xomashyo birjasi" da narxlar ko'tarilar ekan, "Qo'qon mexanika zavodi", "Qizilqum sement" va "Kvarts" ning aksiyalari bahosi tushishda davom etdi hamda mos ravishda 905,48, 3 966,38, 3529,89 so'mgacha pasaydi.

2023 –yil chorak yillik statistikga ko'ra eng o'rtacha eng yuqori narx "Respublika tovar –xomashyo birjasi" da kuzatilayabdi, ya'ni 22300.3 so'm va eng quyi narx "Qo'qon mexanika zavodi" da 873 so'mni tashkil qilyabdi. "O'zmetkombinat"ning aksiyalari dinamikasi esa hamon tushishda davom etmoqda va hozirgi kunda o'rtacha 9 025,17 so'm. "Qizilqum sement" va "Kvarts" AJ larning aksiyalari bahosi dinamikasi esa barqarorlikni saqlay olmadi va o'rtacha 7-15 % gacha pasaydi. Umuman olganda oxirgi hafta davomida RFB da qimmatli qog'ozlar bo'yicha 122,5 mlrd. so'mlik 3554 ta shartnoma tuzildi.

Demak, yuqoridagi statistikma'lumotlarga ko'ra 2018-2023-yilda "Respublika tovar –xomashyo birjasi" dinamikasi faqat o'sishda davom etgan bo'lsa, "Qo'qon mexanika zavodi" aksiyalari bahosi yildan yilga o'z qiymatini yo'qotib borgan. Ammoshu 6 yil ichida eng yuroi narxlarni qays etgan aksiyadorlik jamiyati bu "O'zmetkombinat" bo'ldi. "Kvarts" hamda "Qizilqum sement" aksiyadorlik jamiyatlarining qimmatli qog'ozlari bahosi dinamikasi tez-tez o'zgarib turdi.

Shu sababli, 2020-2025-yillarda mamlakatimiz fond bozorini yanada takomillashtirish, investitsion jozibadorlikka erishish hamda, respublika fond birjasining bzo-ro kapitallashuvini YaIM dagi ulushini oshirish maqsadida maxsus strategiya ishlab chiqish rejalashtirilgan. Erkin muomaladagi jami qimmatli qog'ozlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini 2025-yil oxirigacha kamida 10-15 foizga yetkazish mo'ljallangan.³³

Xulosa va takliflar.

Moliya bozorini rivojlantirish uchun yuqoridagi tahlillardan kelib chiqqan holda quyidagi tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Mamlakatimizda fond bozoridagi qimmatli qog'ozlarning nominal va real narxlari o'rtasida katta tafovut mavjud. Shu sababli investitsion jozibadorlikka erishish va investorlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida bu tafovutni kamaytirish maqsadga muvofiqdir. Chunki, aksiyadorlik jamiyatlarining defolt holatlarida investorlarning pullari nominal bahoda qaytariladi va bu investorlar uchun katta zarar yetkazishi mumkin. Aynan mana shu yo'l orqali investorlar uchun riskni kamaytirish, ayniqsa, yurtimizdagi tub aholining moliyaviy bozoriga bo'lgan ishonchlarini nisbatan oshirish mumkin. Lekin ikkinchi tomondan nominal va real narxlar orasidagi tafovutni kamaytirish aksiyadorlik jamiyatlari uchun zararga ishlashi mumkin. Chunki, bu tafovut qanchalik katta bo'lsa, aksiyadorlik jamiyatlari uchun foyda tushumi shunchalik ortadi va bu ularning ustav kapitaliga qoshiladi.

2. Fond bozorida xorijiy investorlar va shaxsiy sektorlarning ulushini oshirish maqsadida aksiya egalari huquqlarini kuchaytirish va imtiyozlar berish orqali, investorlarni qo'llab-quvvatlash va mamlakatda investitsion jozibadorlikni oshirish mumkin.

3. Korporativ menejmentni yanada takomillashtirish bilan fond bozorida banklar va fond birjasidagi operatsiyalarni yengillashtirish hamda, aynan moliyaviy siyosatda qimmatli qog'ozlar orqali moliyalashtirishga katta imkon yaratiladi.

4. Xalqaro darajadagi moliyaviy hisob standardlariga o'tish orqali aynan xorijiy investorlarni ko'proq jalb qilishga erishiladi, shu jumladan xalqaro fond bozorlari bilan integratsiyalashuv jarayoni jadal rivojlanishiga olib keladi. Ammo, barcha aksiyadorlik jamiyatlarining bu standartlarga to'laqonlik bilan o'tishi juda katta mablag' talab qiladi.

Adabiyotlar/Literatura/Reference:

Chaiporn Vithessonthi (2014). The effect of financial market development on bank risk: evidence from Southeast Asian countries. International Review of Financial Analysis journal. - Volume 35, October, Pages 249-260

Edwin G. Dolan, Coin D.Campbell, Rosemary G. Campbell. (1988) Money, banking and monetary policy. C. "Harcourt School", P. 15.

Elmirzayev S. va boshqalar (2019), Moliya bozori: Darslik; – T.: "Iqtisod-moliya", 7-b.

Frederick S. Mishkin, Kent Matthews and Massimo Giuliadori (2012) The economics of money, banking and financial markets. UK. Pearson, 2013. P.3.; Frederic S. Mishkin, Stanley G.Eakins. Financial markets and institutions. USA. Prentice Hall,. P.2.

Irvan Trinugroho , Siong Huk , Veng Chang Li, Jamol Wiwoho , Bruno S. Sergi. (2021) Effect of financial development on innovation: Roles of market institutions. Economic Modelling journal.- Volume 103, October, 105598

Бурханов А.У., Худойкулов Х.Х. (2021) "Молия бозори ва инвестициялар дарслик". –Т. Маънавият, 11-б.

Чернова В.Э. (2015) Финансовые рынки: учебное пособие/СПбГТУРП. – СПб.: 73 с.

Шохаъзамий Ш.Ш. (2012) Молия бозори ва кимматли коғозлар. Дарслик. -Т.: ТФИ, 265- б.